

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.P.08.10 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

SAMATOVA SEVARA G'AYRATOVNA

**OTA-ONA VA O'SMIR FARZAND MUNOSABATLARINI
BARQARORLASHTIRISHDA AFFILIATSIYA MOTIVINING
IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
психологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on the
Psychological Sciences**

Samatova Sevara G'ayratovna

Ota-ona va o'smir farzand munosabatlarini barqarorlashtirishda affiliatsiya
motivining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari.....3

Саматова Севара Гайратовна

Социально-психологические особенности мотива аффилиации в
стабилизации отношений родителей и ребенка-подростка.....23

Samatova Sevara Gayratovna

Socio-psychological features of the affiliation motive in stabilizing
the relationship between parents and a teenage child 45

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....50

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.P.08.10 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

SAMATOVA SEVARA G'AYRATOVNA

**OTA-ONA VA O'SMIR FARZAND MUNOSABATLARINI
BARQARORLASHTIRISHDA AFFILIATSIYA MOTIVINING
IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/P1013 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Rustamov Shavkat Shuxratovich**
psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar: **Saidov Azamat Ismoyilovich**
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Qodirov Umarali Do'stqobilovich
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot: **Urganch davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.P.08.10 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «4» aprel soat 16:30 da majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 200118, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (+99865) 221-29-14; faks: (+99865) 221-27-57; email: buxdu.rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (Manzil: 200118, Buxoro viloyati, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (+ 998 65) 221-29-14).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «16» mart kuni tarqatildi.

(2026-yil «16» mart dagi 3 - raqamli reyestr bayonnomasi).



A.M. Nazarov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

F.F. Ganjiyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi,
psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

A.A. Xuseynova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari
doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ota-ona va o'smir farzand munosabatlarini barqarorlashtirishda affiliatsiya motivining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganishga alohida ahamiyat berilmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining (WHO¹) «Adolescent mental health» hisobotida keltirilishicha, dunyo bo'yicha 10-15 yosh oralig'idagi o'smirlarning 20% ga yaqini turli ruhiy-emotsional qiyinchiliklarga duch kelishi aniqlangan. Tadqiqotlar o'smirlarning psixologik barqarorligi bevosita oilaviy qo'llab-quvvatlash, e'tibor va ijobiy muloqot darajasiga bog'liqligini ko'rsatadi. Hozirgi davrda virtual muloqotning kuchayishi, shaxslararo munosabatlardagi nizolar, shaxsning o'z manfaati uchun o'zgalar bilan hamkorlik qilish istagining pasayishi insonlarda yolg'izlik hissini ortishiga olib kelayotganligi bilan bog'liq muammolar kuzatilmoqda. Dunyo bo'yicha ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarni barqarorlashtirishning ijtimoiy-psixologik asoslarini o'rganish, sog'lom va zamonaviy oila modellarini amaliyotga tadbiiq etish hamda oila institutini mustahkamlashga qaratilgan samarali yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarb masalalardan bo'lib qolmoqda.

Jahon oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tadqiqot markazlarida ota-ona va o'smir farzand munosabatlarini mustahkamlash, hamkorlikda ishlash ko'nikmasi, shaxslararo munosabatlardagi nizolarni oldini olishda affiliativ motivlarni ahamiyati, guruhga shaxsning integratsiyasi masalasiga qaratilgan ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Michigan universiteti (Institute for Social Research²) «Family Dynamics and Adolescent Well-being» tadqiqotlariga ko'ra, oilada ijobiy muloqot darajasi yuqori bo'lgan o'smirlar maktabda ijobiy o'zlashtirish ko'rsatkichlariga 15-20%ga oshganligi aniqlangan. UNICEF³ hamda UNESCO⁴ hamkorligida o'tkazilgan regional tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, jamiyatda faol bo'layotgan (ko'ngilli ishlarda, jamiyat tadbirlarida qatnashadigan) o'smirlarning 70% dan ortig'i oilasida iliq munosabatlar va yaqinlik hissini o'ta muhim omil sifatida qayd etishgan. Bugungi kunda o'smirlar psixologik rivojlanishida affiliatsiya motivining ahamiyati oilaviy munosabatlarda shaxs affiliatsiya motiviga ta'siri, guruhga moslashishni tadqiq qilishga qaratilgan izlanishlar olib borilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarida yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularni barkamol qilib tarbiyalash, ularning ijtimoiy faolligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko'lamlil islohotlarning ustuvor yo'nalishlari belgilanib, zarur huquqiy-me'yoriy asoslari yaratilmoqda. «Xalq bilan muloqot, odamlarning dard-u tashvishlari bilan yashash, inson manfaatlarini ta'minlash ...eng ustuvor vazifa bo'lib qoladi...»⁵, «Oila institutini mustahkamlash bo'yicha, eng avvalo, «Sog'lom oila – sog'lom jamiyat» g'oyasini hayotga tadbiiq etishga yo'naltirilgan yagona davlat siyosatini yuritish...», «...Oila qanchalik mustahkam bo'lsa, jamiyat ham

¹ <https://www.who.int/>

² <https://isr.umich.edu/>

³ <https://www.unicef.org/>

⁴ <https://unesco.org/>

⁵ <https://lex.uz/docs/-3121798>

shunchalik barqaror bo‘ladi» tamoyiliga asoslanib, oilaviy munosabatlarni barqaror holati yuzasidan yangicha nazariy yechimlarni topish imkoniyatlari yaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi, 2020-yil 18-fevraldagi PF-5938-son «Jamiyatda ijtimoiy-ma‘naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2022-yil 1-martdagi PF-81-son «Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2022-yil 7-martdagi PF-87-son «Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmonlarida hamda faoliyatga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan keng ko‘lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ota-ona va o‘smir farzand munosabatlari affiliatsiya motivi va uning shaxs takomillashuvida muhim omil ekanligini belgilaydigan g‘oyalar o‘zbek olimlaridan D.U.Abdullayeva, F.A.Akramova, Sh.R.Baratov, A.M.Jabborov, A.A.Fayzullayev, V.M.Karimova, Z.T.Nishonova, N.T.Norqulova, N.S.Safayev, I.M.Shoniyozova, B.M.Umarov, B.R.Qodirov, E.G‘.G‘oziyev, G‘.B.Shoumarov va boshqalar tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan G.M.Andreyeva, B.G.Ananyev, S.Kshesinskiy, A.N.Leontev, M.Sh.Magomed-Eminov, Y.Mazurkevich, A.Megrabyan, Y.Melibrud, R.S.Nemov, I.P.Obratsov, K.Obuxovskiy, V.N.Panferov, V.M.Sokovnin, S.L.Rubinshteyn, N.D.Tvorogova, E.G.Yudin, V.I.Zagvyazinskiy va boshqalar ushbu fenomenga aloqador psixologik xususiyatlarni o‘z tadqiqot ishlarida o‘rganilgan.

Xorij olimlaridan P.Bruunk, S.Vorsnop, R.Kubey, A.Myurrey, D.Maklelland, A.Maslou, G.Myurrey, J.Nuftin, R.Uotson, A.Xenri, X.Xekxauzen va boshqalar motivatsiya, xususan, affiliatsiya motivi muammosi bilan shug‘ullangan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlar bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining PZ-202005236-raqamli «Oila psixologiyasi fanidan multimedia mahsulotini yaratish» nomli innovatsion loyiha doirasida bajarilgan (2021–2022-yy.).

Tadqiqotning maqsadi ota-ona va o‘smir farzand munosabatlarini barqarorlashtirishda affiliatsiya motivining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganish hamda amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ota-ona va o'smir farzand munosabatlarini barqarorlashtirishda affiliatsiya motivining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish;

o'smirlardagi affiliatsiya motivi mezonlari shakllanishiga xizmat qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillarni ochib berish;

ota-ona va o'smir farzand munosabatlarini barqarorlashtirishda empatiya darajasini ta'sirini ochib berish;

ota-ona va o'smir farzand munosabatlarini barqarorlashtirishga mo'ljallangan psixologik trening dasturlarini ishlab chiqish va samaradorligini baholash.

Tadqiqotning obyekti sifatida ota-ona va o'smir farzand munosabatlarini barqarorlashtirishda affiliatsiya motivining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tanlangan bo'lib, tadqiqotga Toshkent shahar №10, №31-umumta'lim maktablaridan 60 nafar, Buxoro viloyati Romitan tumanidagi №2, №4-maktablardan 40 nafar hamda Navoiy viloyati Karmana tumanidagi №5, №8-maktablardan 40 nafar, jami 140 nafar o'smirlar hamda ularning 60 nafar ota-onalari responentlar sifatida jalb etildi.

Tadqiqotning predmetini ota-ona va o'smir farzand munosabatlarini barqarorlashtirishda affiliatsiya motivining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida kuzatish, suhbat, anketa metodlaridan, shuningdek, A.Y.Varga va V.V.Stolinning «Ota-ona munosabati» test-so'rovnomasi, Rene Jile tomonidan ishlab chiqilgan N.D.Ignatyeva tomonidan modifikatsiya qilingan «Bolaning shaxslararo munosabatlarini o'rganish» so'rovnomasi, V.V.Boyko tomonidan ishlab chiqilgan «Empatiya darajasini diagnostikasi» metodikasi, A.Megrabyanning «Affiliatsiya motivatsiyasi» metodikasi hamda hammualiflikda ishlab chiqilgan (Sh.Sh.Rustamov, S.G'.Samatova) «Ota-ona va o'smir farzand munosabatlarini barqarorlashtirishda affiliatsiya motivini o'rganish so'rovnomasi»dan foydalanildi. Olingan natijalarning statistik ishonchlilik darajasi matematik statistika metodlaridan Styudentning t-mezone, K.Pirsonning r-korrelyatsiya koeffitsiyenti, faktorli tahlil orqali tasdiqlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ota-ona va o'smir farzand munosabatlaridagi affiliatsiya motivi kommunikativ ustanovkalar, ijtimoiy persepsiya jarayonlaridagi selektivlik, ijtimoiy refleksiyaning differensial namoyon bo'lishiga asoslanib oiladagi «emotsional yaqinlik», «hamkorlik», «o'zaro ishonch»ning ota-onalik ustanovkalari asosida dinamik shakllanishiga ta'sir etishi dalillangan;

oilaviy muloqotda affiliatsiya motivlarining namoyon bo'lishi oilaning ierarxik, o'zaro munosabatlardagi mehr va axloq darajasi, tarbiyada bolaning yosh xususiyatlariga moslashuvchanlik jihatlari asoslanib ota-onaning farzandga nisbatan emotsional qabul qilish, hamkorlik va simbiotik yondashuvi orqali o'ziga ishonch hamda hissiy yaqinlikning kechinmalar modalligiga bog'liq ekanligi aniqlangan;

oilaviy munosabatlar tizimida o'smirlardagi affiliatsiya motivining namoyon bo'lishi oila mikromuhitida ijtimoiy munosabatlarga mansublikni his qilish va o'zaro bir-birlarini qabul qilishga intilishning hamdardlikni ratsional va pozitiv emotsional ustanovkalariga bog'liq xususiyatlar ta'sirida kuchli ifodalanishiga

asoslanib empatiyaning intrasubyektiv resurslarini ijtimoiylashuv jarayonida «tan olinish» ehtiyoji orqali faollashuvi asosida yuzaga kelishi aniqlangan;

ota-ona – o‘smir farzand munosabatlarini barqarorlashtirish uchun oiladagi kommunikativ, persepsiv, interaktiv, didaktik funksiyalarning konstruktivligi orqali sog‘lom sotsializatsiyani ta‘minlash muhimligi tufayli affiliatsiya motivini oilaviy rollardagi refleksiv xususiyatlarga bog‘liq ijobiy ustanovkalar asosida rivojlanishiga erishish zarurligi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ota-ona va o‘smir farzand munosabatlarini barqarorlashtirishga mo‘ljallangan maxsus dastur yaratilgan;

ota-ona va o‘smir farzand munosabatlarini barqarorlashtirishda affiliatsiya xususiyatlarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

ota-ona va o‘smir farzand munosabatlarini barqarorlashtirish bo‘yicha psixologik treninglar majmui ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot o‘tkazish jarayonida keltirilgan ijtimoiy-psixologik ma‘lumotlar xalqaro miqyosida o‘zining ishonchli ekanligini tasdiqlagan diagnostik vositalar orqali to‘planganligi; o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi va samaradorlikni oshiruvchi metodlar qo‘llanilganligi; empirik ma‘lumotlar matematik-statistik tahlil qilinganligi; berilgan taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy etilganligi; olingan yakuniy natijalar vakolatga ega bo‘lgan tuzilmalar orqali rasmiy tasdiqlanganligi bilan isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bevosita uning ilmiy yangiligi va tadqiqot metodlarining ishonchliligidan kelib chiqadi. Shuningdek, empirik tadqiqot dasturini ishlab chiqish usullari, mazmuniy statistik tahlil, yondashuvlarning ota-ona va o‘smir farzand munosabatlarini barqarorlashtirish dasturi ishlab chiqilganligi, o‘rganilayotgan muammoni ilmiy jihatdan ochib berilganligi bakalavr hamda oilaviy munosabatlar psixologiyasini takomillashtirishga qaratilgan nazariy va amaliy ishlanmalarda manba sifatida foydalanish imkoniyati mavjudligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, mazkur tadqiqot doirasida olingan empirik tahlil natijalaridan ota-ona va o‘smir farzand munosabatlarini barqarorlashtirish jarayonida affiliatsiya motivini rivojlantirish orqali o‘zaro yaqinlik, ishonch va emotsional qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirishda, oilaviy muloqot samaradorligini oshirishda hamda o‘smirlarning ijtimoiy-psixologik moslashuvini ta‘minlashda foydalanish mumkinligi, «Oila psixologiyasi», «Ijtimoiy psixologiya», «Psixologik xizmat», «Psixologik maslahat va psixokorreksiya» fanlaridan o‘quv qo‘llanma, darsliklar tayyorlashda, psixologik lug‘atlarni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. «Ota-ona va o‘smir farzand munosabatlarini barqarorlashtirishda affiliatsiya motivining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari»ni o‘rganish bo‘yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

ota-ona va o‘smir farzand munosabatlaridagi affiliatsiya motivi kommunikativ ustanovkalar, ijtimoiy persepsiya jarayonlaridagi selektivlik,

ijtimoiy refleksiyaning differensial namoyon bo'lishiga asoslanib oiladagi «emotsional yaqinlik», «hamkorlik», «o'zaro ishonch»ning ota-onalik ustanovkalari asosida dinamik shakllanishiga ta'sir etishi dalillanganligiga oid natijalar Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-iyundagi PM-379-son buyrug'i bilan «Oila psixologiyasi» moduliga kiritilgan (Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 16-iyundagi PM-245a-son ma'lumotnomasi). Natijada ota-ona va o'smir farzand munosabatlarini barqarorlashtirishda affiliatsiya motivini tadqiq etish imkoniyati yaratilgan;

oilaviy muloqotda affiliatsiya motivlarining namoyon bo'lishi oilaning ierarxik, o'zaro munosabatlardagi mehr va axloq darajasi, tarbiyada bolaning yosh xususiyatlariga moslashuvchanlik jihatlari asoslanib ota-onaning farzandga nisbatan emotsional qabul qilish, hamkorlik va simbiotik yondashuvi orqali o'ziga ishonch hamda hissiy yaqinlikning kechinmalar modalligiga bog'liq ekanligi aniqlanganligiga oid natijalar Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-iyundagi PM-379-son buyrug'i bilan «Oila psixologiyasi» moduliga kiritilgan (Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 16-iyundagi PM-245a-son ma'lumotnomasi). Natijada ota-ona va o'smir farzand munosabatlarini barqarorlashtirishda affiliatsiya motivini shakllantirishning asosiy usullari ko'rsatib berilgan;

oilaviy munosabatlar tizimida o'smirlardagi affiliatsiya motivining namoyon bo'lishi oila mikromuhitida ijtimoiy munosabatlarga mansublikni his qilish va o'zaro bir-birlarini qabul qilishga intilishning hamdardlikni ratsional va pozitiv emotsional ustanovkalariga bog'liq xususiyatlar ta'sirida kuchli ifodalanishiga asoslanib empatiyaning intrasub'yektiv resurslarini ijtimoiylashuv jarayonida «tan olinish» ehtiyoji orqali faollashuvi asosida yuzaga kelishi aniqlanganligiga oid natijalar Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-iyundagi PM-379-son buyrug'i bilan «Oila psixologiyasi» moduliga kiritilgan (Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 16-iyundagi PM-245a-son ma'lumotnomasi). Natijada ota-ona va o'smir farzand munosabatlarini barqarorlashtirishda affiliatsiya motivini rivojlantirish modeli ishlab chiqilgan;

ota-ona – o'smir farzand munosabatlarini barqarorlashtirish uchun oiladagi kommunikativ, persepsiv, interaktiv, didaktik funksiyalarning konstruktivligi orqali sog'lom sotsializatsiyani ta'minlash muhimligi tufayli affiliatsiya motivini oilaviy rollardagi reflektiv xususiyatlarga bog'liq ijobiy ustanovkalar asosida rivojlanishiga erishish zarurligi dalillanganligiga oid natijalar Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-iyundagi PM-379-son buyrug'i bilan «Oila psixologiyasi» moduliga kiritilgan (Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 16-iyundagi PM-245a-son ma'lumotnomasi). Natijada ota-ona va o'smir farzand

munosabatlarini barqarorlashtirishda affiliatsiya motivini o'rganish imkoniyati oshirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Tadqiqotning asosiy natijalari bo'yicha 15 ta ilmiy maqola, shu jumladan, 4 tasi O'zbekiston Respublikasi OAK tavsiya etgan jurnallarda, 2 tasi xorijiy jurnalda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, umumiy xulosa va amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 146 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

«**Kirish**» qismda dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan, maqsadi va vazifalari belgilangan, tadqiqot metodlari, obykti va predmeti ko'rsatilgan, uning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotda olingan natijalarning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, nazariy va amaliy ahamiyati, ishonchligining asoslanishi, ularning amaliyotda tadbiiq etilishi, ilmiy nashrlarda e'lon qilinganligi, dissertatsion tadqiqotning tuzilishiga oid ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Affiliatsiya motivining ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarda o'rganilishi**» deb nomlangan birinchi bobida affiliatsiya motivi fenomenining o'rganilganlik darajasi, oilada ijobiy muhitni yaratish muammosining bugungi holati, affiliatsiya motivi ota-ona va o'smir farzand munosabatlarida ijtimoiy-psixologik muvozanatni ta'minlash vositasi ekanligiga bog'liq nazariy tushunchalarning tahliliiy sharhi keltirilgan.

O'zbek olimlaridan N.Sog'inov, M.Yo'ldoshev, G.Yadgarova, O'.Shamsiyev, F.Ro'ziqulov, R.Samarov, M.Utepbergenov, F.Akramova, X.Jabborov, D.Abdullayeva, U.Ibaydullayeva, M.Salaeva, D.T.Ismatova, D.M.Anvarova, G.A.Qarshiboyeva va boshqalarning tadqiqot ishlari oila va oilaviy munosabatlarga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillar muammosiga bag'ishlangan.

MDH olimlaridan G.S.Abramova, A.A.Bodalev, A.K.Markova, V.L.Morishyuk, M.V.Matyuxina, V.N.Kunitsina, L.A.Karpenko, A.V.Petrovskiy, A.Leontyev, V.Sukhomlinsky, L.Bojovich, Y.Lotman va boshqalarning tadqiqotlarida ota-ona va farzand munosabatlari, zamonaviy oila tuzilishi, oiladagi o'zaro muloqotning konstruktivligi to'g'risida sharhlar berilgan.

Xorijiy olimlaridan A.Adler, A. Myurrey, J.Piaje, F.Dolto, R.Spitz, M.Klein, D.Winnicott, H.Harlow, D.Baumrind, A.Bandura, L.Kolberg, K.Rojers, B.F.Skinner, J.Piaje, J.Boulbi va boshqalarning ilmiy izlanishlarida oiladagi shaxslararo munosabatlardagi affilatsiya motivi hamda hissiy-emotsional holatlari ilmiy jihatdan tadqiq etilgan.

Dissertatsiyaning «**Ota-ona va o'smir farzand munosabatlarini barqarorlashtirishda affiliatsiya motivining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganishning empirik asoslari**» deb nomlangan ikkinchi bobida o'rganilayotgan muammoning empirik tahlili keltirilgan bo'lib, ushbu bobda tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari, tadqiqotda qo'llanilgan metodlarning

umumiy tavsifi, o'tkazish tartibi, olingan natijalarning tahlili va korrelyatsion bog'lanishlar tahlili o'z aksini topgan.

Dastlab, «Ota-ona va o'smir farzand munosabatlarini barqarorlashtirishda affiliatsiya motivini o'rganish so'rovnomasi» orqali olingan natijalar tahliliga o'tamiz.

1-jadval.

«Ota-ona va o'smir farzand munosabatlarini barqarorlashtirishda affiliatsiya motivini o'rganish so'rovnomasi» orqali olingan dastlabki natijalar tahlili (ota-onalar uchun), (n=60)

Shkalalar nomi	O'rtacha (M)		Farqlar T
	Erkaklar, n=30	Ayollar, n=30	
Emotsional yaqinlik	3,2	5,8	-2,5*
Hamkorlik	4,5	6,9	-2,4*
O'zaro ishonch	6,7	4,2	-2,7*

Izoh: * – $p \leq 0,05$;

«Ota-ona va o'smir farzand munosabatlarini barqarorlashtirishda affiliatsiya motivini o'rganish so'rovnomasi» orqali olingan natijalarning dastlabki statistik tahlili shuni ko'rsatdiki, «emotsional yaqinlik» ($t=-2,5$; $p<0,05$), «hamkorlik» ($t=-2,4$; $p<0,05$) hamda «o'zaro ishonch» ($t=-2,7$; $p<0,05$) omillarida ishonchli farqlar kuzatildi.

«Emotsional yaqinlik» omili bo'yicha tahlil ($t=-2,5$; $p<0,05$) ayollarda yuqori natijalarni ko'rsatgan bo'lib, bu ularning hissiy bog'lanishni his qilishlariga asoslanadi. Ayollar farzandlar bilan muloqotda hissiy yaqinlikni saqlash uchun ko'proq vaqt va e'tibor ajratadilar, bu esa oilaviy munosabatlarning barqarorligini oshiradi. Tadqiqot natijalari yaqinlik darajasidagi farqlarni ota-onaning hissiy xulq-atvori va farzandlarning ehtiyojlariga bo'lgan sezgirligi bilan izohlaydi. Ota-onaning farzandlar bilan o'tkazadigan vaqti ko'proq hissiy bog'lanishga zamin yaratadi. Yaqinlik darajasi past bo'lgan oilalarda farzandlarning ruhiy barqarorligi buzilishi xavfi oshadi.

«Hamkorlik» omiliga ko'ra, statistik tahlillar ($t=-2,4$; $p<0,05$) bu sohada erkaklarning yuqori natijalarga ega ekanligini ko'rsatdi. Erkaklar farzandlari bilan faoliyat olib borishda va birgalikda qaror qabul qilishda ko'proq qatnashishga moyil ekanliklari bilan ajralib turadilar. Oilaviy faoliyatlarda hamkorlik qilish o'smir farzandlarning ijtimoiy moslashuvini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, hamkorlik oilada nizolarni kamaytirish va ijobiy muloqotni rivojlantirish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Tahlillar natijasida «o'zaro ishonch» omili bo'yicha erkaklar ayollarga qaraganda yuqori natijalarga erishganliklari aniqlandi ($t=-2,7$; $p<0,05$). Ushbu natija erkaklarning oilaviy muhitda ishonchni barqarorlashtirishda faol rol o'ynashlarini ko'rsatadi. Erkaklar farzandlarining muammolarini tinglash va ularga konstruktiv maslahatlar berish orqali ishonchli muhit yaratishga intilishar ekan. Bu ularning oilada yetakchilik vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishlariga ham bog'liqdir. Erkaklarning hissiy barqarorligi va qaror qabul qilishdagi qat'iyati oiladagi ishonch darajasini oshirishga yordam beradi. Ushbu omil, ayniqsa, o'smir

yoshdagi farzandlar uchun muhim bo'lib, ularning psixologik ehtiyojlarini qondirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Umuman olganda, «emotsional yaqinlik», «hamkorlik» va «o'zaro ishonch» omillari ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlarning muhim jihatlarini o'zida aks ettiradi. Ushbu omillar oilaviy muhitni sog'lomlashtirish, nizolarni kamaytirish va farzandlarning psixologik farovonligini ta'minlashda asosiy rol o'ynaydi.

Tadqiqotimizning navbatdagi bosqichida V.V.Boykning «Empatiya darajasini aniqlash diagnostikasi» bo'yicha o'smirlardan olingan dastlabki natijalar tahliliga o'tamiz.

2-jadval.

V.V.Boykning «Empatiya darajasini aniqlash diagnostikasi» bo'yicha olingan dastlabki natijalar tahlili (bolalar uchun), (n=140)

Shkalalar nomi	O'rtacha (M)		Farqlar
	6-sinf, n ₁ =72	8-sinf, n ₂ =68	t
Empatiyaning ratsional kanali	12,2	14,5	-2,9*
Empatiyaning hissiy kanali	13,6	11,7	-2,5*
Empatiyaning intuitiv kanali	12,7	14,3	-2,6*
Empatiyaga imkon beruvchi ustanovkalar	13,6	11,2	-2,4*
Empatiyaning kirishish qobiliyati	11,3	13,7	-2,8*

Izoh: * – $p \leq 0,05$;

V.V.Boykning «Empatiya darajasini aniqlash diagnostikasi» bo'yicha, olingan dastlabki natijalar tahliliga o'tadigan bo'lsak, «empatiyaning ratsional kanali» ($t=-2,9$; $p \leq 0,05$), «empatiyaning hissiy kanali» ($t=-2,5$; $p \leq 0,05$), «empatiyaning intuitiv kanali» ($t=-2,6$; $p \leq 0,05$), «empatiyaga imkon beruvchi ustanovkalar» ($t=-2,4$; $p \leq 0,05$) hamda «empatiyaning kirishish qobiliyati» ($t=-2,8$; $p \leq 0,05$) omillarida ishonchli farqlar qayd etildi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, metodikaning «empatiyaning ratsional kanali» omili bo'yicha 8-sinf o'quvchilarida yuqori natijalar kuzatilgan ($t=-2,9$; $p \leq 0,05$). Ushbu natijalar o'smirlarning mantiqiy fikrlash asosida boshqalarni tushunish qobiliyatlarining rivojlanganligini ko'rsatadi. Ratsional empatiya o'smirlarning hissiyotlarni nazorat qilish bilan birga, vaziyatlarni tahlil qilish orqali boshqalarning ehtiyojlarini aniqlash qobiliyatini o'z ichiga oladi. O'smirlarning ratsional empatiyasi oilaviy va ijtimoiy munosabatlarda o'zini ko'rsatish imkoniyatini oshiradi. Mazkur qobiliyat ularga nizolarni konstruktiv hal qilishda yordam beradi. Oilaviy muhitda ratsional empatiya o'smirlarning mustaqil fikrlashini va o'z mas'uliyatini anglashini ta'minlaydi.

Shuningdek, «empatiyaning hissiy kanali» bo'yicha 6-sinf o'quvchilari ijobiy natijalarni qayd etgan bo'lib ($t=-2,5$; $p \leq 0,05$), bu ularning boshqalarni hissiy tushunish qobiliyatlari yuqori ekanligini ko'rsatadi. Hissiy empatiya ularga boshqalarning his-tuyg'ularini qabul qilish va moslashish imkonini beradi. Ushbu yoshdagi o'quvchilar ko'proq his-tuyg'ularga asoslangan muloqotni afzal ko'radilar. Ota-onalar uchun bu yoshdagi farzandlarning hissiy ehtiyojlariga e'tibor

qaratish muhimdir. Hissiy empatiya oilaviy munosabatlarda iliq muhitni yaratishga yordam beradi.

Metodikaning «empatiyaning intuitiv kanali» omili bo'yicha 8-sinf o'quvchilarining yuqori natijalarga ega ekanligi kuzatilgan ($t=-2,6$; $p\leq 0,05$). Ushbu natijalar intuitiv qobiliyatlarning rivojlanganligini aks ettiradi, ya'ni o'quvchilar boshqalarni tushunishda ichki sezgilarga tayanadilar. Intuitiv empatiya ularga hissiyotlarni chuqur tahlil qilmasdan, darhol tushunish imkonini beradi. 8-sinf o'quvchilari ushbu qobiliyat orqali murakkab vaziyatlarda moslashuvchanlikni namoyon etadilar. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, intuitiv empatiyaga ega bo'lgan o'quvchilar muloqotda ko'proq sezgirlikni namoyish etadilar. Ushbu qobiliyat oilaviy munosabatlarni mustahkamlash va nizolarni oldini olishga xizmat qiladi.

«Empatiyaga imkon beruvchi ustanovkalar» omili bo'yicha esa 6-sinf o'quvchilarining yuqori natijalarga ega bo'lganliklari qayd etildi ($t=-2,4$; $p\leq 0,05$). Bu natijalar o'quvchilarning boshqalarga hamdard bo'lish istagi yuqori ekanligini ko'rsatadi. Ular odatda boshqalarni tushunish va qo'llab-quvvatlashni afzal ko'radilar. Ushbu yoshdagi o'quvchilarda empatiyaga oid pozitiv ustanovkalar rivojlangan bo'lib, bu ularning ijtimoiy aloqalarida aks etadi. Farzandlarining ushbu xususiyatlarini rivojlantirish ota-onalarga munosabatlarni mustahkamlashda yordam beradi. Bu omil oilaviy muloqotda ijobiy muhitni ta'minlaydi. O'quvchilarning boshqalar bilan yaqin munosabatlar o'rnatish istagi ularning hissiy ehtiyojlarini qondiradi. Bu yoshdagi o'quvchilarda empatiyaning shakllanishi ular uchun ijtimoiy rivojlanishning muhim qismidir.

Metodikaning so'nggi «empatiyaning kirishish qobiliyati» omiliga ko'ra, 8-sinf o'quvchilarida ijobiy natijalar qayd etilgan bo'lib ($t=-2,8$; $p\leq 0,05$), bu ularning ijtimoiy muhitga moslashuvchanligini ko'rsatadi. Ushbu qobiliyat ularga boshqalar bilan tezda aloqalar o'rnatishga yordam beradi. 8-sinf o'quvchilari bu qobiliyat orqali ijtimoiy aloqalarini kengaytirishga muvaffaq bo'ladilar. Kirishuvchanlik oilaviy muhitda iliq aloqalarni rivojlantirishga yordam beradi. Bu qobiliyat ularning ota-ona bilan aloqalarida o'zaro ishonchni mustahkamlaydi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, kirishuvchanlik yuqori bo'lgan o'smirlar nizolarni hal qilishda o'zlarini erkin his qiladilar. Shu bilan birga, bu qobiliyat ularning ijtimoiy moslashuvini oshiradi.

Umuman olganda, yuqorida ko'rsatib o'tilgan empatiya omillari ota-ona va farzandlar o'rtasidagi ijtimoiy-psixologik aloqalarni chuqurroq tahlil qilish va mustahkamlash uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu tahlillar o'smirlarning oilaviy muhitdagi o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi.

3-jadval.

A.Megrabyanning «Affiliatsiya motivatsiyasi» metodikasi bo'yicha olingan dastlabki natijalar tahlili (bolalar uchun), (n=140)

Shkalalar nomi	O'rtacha (M)		Farqlar t
	6-sinf, n ₁ =72	8-sinf, n ₂ =68	
Qabul qilishga intilish	12,1	10,7	-2,4*
Rad etilishdan qo'rqish	10,5	12,7	-2,5*

Izoh: * – $p \leq 0,05$;

«Affiliatsiya motivatsiyasi» metodikasi bo'yicha olingan dastlabki natijalar tahliliga o'tadigan bo'lsak, «qabul qilishga intilish» ($t=-2,4$; $p\leq 0,05$) hamda «rad etilishdan qo'rqish» ($t=-2,5$; $p\leq 0,05$) omillarida ishonchli farqlar qayd etildi.

Affiliatsiya motivatsiyasining «qabul qilishga intilish» omili bo'yicha 6-sinf o'quvchilarida yuqori natijalar qayd etilgan ($t=-2,4$; $p\leq 0,05$). Ushbu natijalar shuni ko'rsatadiki, o'smirlarning ushbu bosqichdagi ijtimoiy ehtiyojlari sezilarli darajada rivojlangan bo'lib, ular o'zlarini oilada va atrof-muhitda qabul qilingan shaxs sifatida his qilishga intilishadi. Bu intilish oilaviy muhitda hissiy iliqlikni saqlashga va o'zaro hurmatni mustahkamlashga hissa qo'shadi. O'smirlar ayniqsa, ota-onalar tomonidan qo'llab-quvvatlash va e'tibor talab qiladilar, bu esa ularga ijtimoiy moslashuvchanlikni rivojlantirish imkonini beradi. O'smirlarning o'zlarini qabul qilinmagan deb his qilishlari ularning psixologik barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, ota-onalar va pedagoglarning ushbu ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan yondashuvi, ayniqsa, muhimdir. Umuman olganda, qabul qilishga intilish omili o'smirlarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun muhim vosita bo'lib, u oilaviy munosabatlarning barqarorligini ta'minlashga yordam beradi. Shu bilan birga, ushbu qobiliyatning rivojlanishi o'smirlarning jamiyatda o'ziga xos o'rnini topishiga va ijtimoiy moslashuvchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Metodika bo'yicha olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, «rad etilishdan qo'rqish» omili bo'yicha 8-sinf o'quvchilarida yuqori natijalar qayd etilgan ($t=-2,5$; $p\leq 0,05$). Bu esa ushbu yoshdagi o'quvchilarning ijtimoiy-emotsional ehtiyojlari va muammolarini ochib beradi. Ushbu natijalar o'smirlarning atrofdagilar tomonidan rad etilish ehtimoliga bo'lgan yuqori sezuvchanligini ko'rsatadi, bu esa ularning ruhiy sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu yoshdagi o'quvchilar, ayniqsa, ota-onalari va yaqinlari tomonidan qabul qilinishga katta ahamiyat beradilar, shuning uchun rad etilishdan qo'rqish hissi ularda bezovtalikni keltirib chiqaradi. Shuningdek, 8-sinf o'quvchilarining ushbu omil bo'yicha yuqori natijalar ko'rsatishi ular ijtimoiy muhitda o'zlarini xavfsiz his qilmasliklari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bu qo'rquv o'smirlarning o'z fikrlarini ifoda etishda yoki muammolarini ochiq muhokama qilishda qiyinchiliklarga duch kelishlariga sabab bo'ladi. Rad etilishdan qo'rqish ularning ota-ona bilan munosabatlarida ham o'z ifodasini topib, ishonchli va samimiy muloqotni cheklashi mumkin. Ushbu qo'rquv tufayli o'smirlar o'z his-tuyg'ularini yashirishga moyil bo'ladilar, bu esa ularning hissiy ehtiyojlarini to'liq qondirishga to'sqinlik qiladi.

Shuningdek, endi «Ota-ona va o'smir farzand munosabatlarini barqarorlashtirishda affiliatsiya motivini o'rganish so'rovnomasi» omillari hamda A.Y.Varga va V.V.Stolin tomonidan ishlab chiqilgan «Ota-ona munosabati so'rovnomasi» o'rtasidagi aloqadorlikka to'xtalamiz (ota-onalar).

Mazkur tadqiqotda «Ota-ona va o'smir farzand munosabatlarini barqarorlashtirishda affiliatsiya motivini o'rganish so'rovnomasi» va A.Y.Varga va V.V.Stolin tomonidan ishlab chiqilgan «Ota-ona munosabati so'rovnomasi» o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlar aniqlangan bo'lib, bir qator omillar o'rtasida ijobiy bog'liqlik qayd etilgan. Jumladan, «emotsional yaqinlik» omili - «kooperatsiya» ($r=0,35$; $p\leq 0,05$) hamda «simbioz» ($r=0,29$; $p\leq 0,05$) omillari bilan

ijobiy, «hamkorlik» omili - «infantilizatsiya» ($r=-0,34$; $p\leq 0,05$) omili bilan salbiy, «o‘zaro ishonch» omili - «yaqin olish» ($r=-0,41$; $p\leq 0,05$) omili bilan ijobiy korrelyatsiya aniqlandi.

4-jadval.

«Ota-ona va o‘smir farzand munosabatlarini barqarorlashtirishda affiliatsiya motivini o‘rganish so‘rovnomasi» hamda A.Y.Varga va V.V.Stolin tomonidan ishlab chiqilgan «Ota-ona munosabati so‘rovnomasi» omillari o‘rtasidagi aloqadorlik (ota-onalar), (n=60)

Omillar	Emotsional yaqinlik	Hamkorlik	O‘zaro ishonch
Yaqin olish	0,16	0,21	0,41*
Kooperatsiya	0,35*	0,19	0,14
Simbioz	0,29*	0,14	0,16
Avtoritarizm	0,13	0,15	0,13
Infantilizatsiya	0,12	-0,34*	0,17

Izoh: * – $p \leq 0,05$;

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, «emotsional yaqinlik» omili bilan «kooperatsiya» omili o‘rtasida ijobiy bog‘lanish mavjud bo‘lib ($r=0,35$; $p\leq 0,05$), bu o‘smirlarning oilaviy munosabatlarida hissiy yaqinlikni saqlashga bo‘lgan intilishlarini aks ettiradi. Ushbu natija ota-onalar va farzandlar o‘rtasidagi hissiy aloqalarning mustahkamligi ko‘pincha birgalikda qaror qabul qilish va hamkorlik qilish jarayonlarida namoyon bo‘lishini tasdiqlaydi. Kooperatsiya jarayonida o‘smirlar o‘z mas‘uliyatlarini to‘g‘ri anglaydilar va oila manfaatlari uchun birgalikda harakat qilishga tayyor bo‘ladilar. Ota-onalar tomonidan hissiy qo‘llab-quvvatlash farzandlarning oiladagi vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishlariga yordam beradi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, «emotsional yaqinlik» omili bilan «simbioz» omili o‘rtasida ham ijobiy bog‘lanish qayd etilgan ($r=0,29$; $p\leq 0,05$), bu esa farzandlarning oiladagi yaqin munosabatlarni qadrlashini ko‘rsatadi. Ushbu bog‘lanish ota-onalar va farzandlar o‘rtasidagi o‘zaro tushunish va hissiy bog‘lanish darajasini aks ettiradi. Simbioz omili, bir tomondan, ota-onalar va farzandlar o‘rtasidagi hissiy aloqalarni mustahkamlaydi, boshqa tomondan, o‘smirlarning oila ichidagi rollarini aniqlashga yordam beradi. Shu bilan birga, simbioz jarayoni ota-onalarning farzandlar tarbiyasida ularga yetarlicha e‘tibor qaratishini talab etadi. O‘smirlarning oiladagi hissiy bog‘lanishlarini mustahkamlash ularga ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatli moslashish imkonini beradi. Simbioz omili farzandlarning oilaviy qadriyatlarini anglashlariga va ularga hurmat bilan yondashishlariga yordam beradi.

Tadqiqotda «hamkorlik» omili bilan «infantilizatsiya» omili o‘rtasidagi salbiy korrelyatsiya qayd etilgan bo‘lib ($r=-0,34$; $p\leq 0,05$), ushbu bog‘lanish ota-onalarning farzandlar bilan munosabatlarida yuzaga kelayotgan muayyan muammolarni aniqlash muhimligini ko‘rsatdi. Ushbu natija ota-onalarning hamkorlikka intilishlari bilan farzandlarning o‘z harakatlarida mas‘uliyatsizlikni namoyon qilish darajalari o‘rtasidagi qarama-qarshi munosabatni ham aks ettiradi.

Ota-onalar farzandlar bilan teng huquqli munosabatni yo'lga qo'yishga harakat qilishlari bilan birga, farzandlar tomonidan mas'uliyatni yetarli darajada anglamaslik va mustaqillikni qabul qilmaslik holatlari kuzatiladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, hamkorlikka asoslangan muloqot jarayoni farzandlarning mustaqillik qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qilishi kerak, ammo infantilizatsiya ushbu jarayonni murakkablashtiradi. Farzandlar o'zlariga berilgan erkinlik va mas'uliyatni noto'g'ri qabul qilganlarida, bu ularning rivojlanishida hissiy qaramlik holatini kuchaytiradi. Bu esa ota-onalarning ularni rivojlantirishga bo'lgan intilishlariga qarama-qarshi natijalarni keltirib chiqaradi. Shu sababli, ota-onalar farzandlariga qo'yilayotgan talablar va ularning mustaqillikka moslashish jarayonlarini muvozanatli nazorat qilishlari muhimdir. Infantilizatsiya holati farzandlarning ota-onalar bilan muloqotda o'z nuqtai nazarlarini bildirishda qiyinchiliklarga duch kelishlariga sabab bo'ladi. Bunday vaziyatda ota-onalar tomonidan berilayotgan mas'uliyatni rivojlantirishga qaratilgan yondashuv farzandlar tomonidan noto'g'ri qabul qilinadi, bu esa ular o'rtasidagi ishonch va muloqotni susaytiradi.

Tahlillar natijasiga ko'ra, «o'zaro ishonch» omili bilan «yaqin olish» omili o'rtasida ham ijobiy bog'lanish aniqlangan ($r=0,41$; $p \leq 0,05$), bu esa oilaviy munosabatlarda ochiqlik va ishonchning mavjudligini ko'rsatadi. Ushbu natija o'smirlarning ota-onalar bilan yaqin aloqalarni rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojlarini aks ettiradi. O'zaro ishonch oilaviy muhitda shaxslararo munosabatlarning iliqligini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi.

A.Megrabyanning «Affiliatsiya motivatsiyasi» metodikasi hamda V.V.Boykoning «Empatiya darajasini aniqlash diagnostikasi» o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanish natijalariga diqqatimizni qaratamiz.

5-jadval.

A.Megrabyanning «Affiliatsiya motivatsiyasi» metodikasi hamda V.V.Boykoning «Empatiya darajasini aniqlash diagnostikasi» omillari o'rtasidagi aloqadorlik (bolalar uchun), (n=140)

Omillar	Qabul qilishga intilish	Rad etilishdan qo'rqish
Empatiyaning ratsional kanali	0,34*	0,12
Empatiyaning hissiy kanali	0,13	-0,32*
Empatiyaning intuitiv kanali	0,17	0,18
Empatiyaga imkon beruvchi ustanovkalar	0,38*	0,10
Empatiyaning kirishish qobiliyati	0,19	-0,33*

Izoh: * – $p \leq 0,05$; ** – $p \leq 0,01$; *** – $p \leq 0,001$.

Mazkur tadqiqotda «Affiliatsiya motivatsiyasi» metodikasi hamda V.V.Boykoning «Empatiya darajasini aniqlash diagnostikasi» omillari o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlar aniqlangan bo'lib, bir qator omillar o'rtasida ijobiy bog'liqlik qayd etilgan. Jumladan, «qabul qilishga intilish» omili - «empatiyaning

ratsional kanali» ($r=0,34$; $p\leq 0,05$) hamda «empatiyaga imkon beruvchi ustanovkalar» ($r=0,38$; $p\leq 0,05$) omillari bilan ijobiy, «rad etilishdan qoʻrqish» omili - «infantilizatsiya» ($r=-0,32$; $p\leq 0,05$) hamda «yaqin olish» ($r=-0,33$; $p\leq 0,05$) omillari bilan salbiy korrelyatsiya aniqlandi.

Natijalar tahlili shuni koʻrsatadiki, «qabul qilishga intilish» omili bilan «empatiyaning ratsional kanali» oʻrtasida ijobiy bogʻlanish mavjud boʻlib ($r=0,34$; $p\leq 0,05$), bu ota-onalar va oʻsmir farzandlar oʻrtasidagi hissiy aloqalarni barqarorlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu bogʻlanish, asosan, oʻsmirlarning oilaviy muloqot jarayonida oʻz hissiyotlarini tahlil qilish va boshqalarning his-tuygʻularini tushunish qobiliyatini namoyon etadi. Qabul qilishga intilish empatiyaning ratsional yondashuvi orqali farzandlarning ota-onalar tomonidan qabul qilinishga boʻlgan ehtiyojlarini qondiradi. Bu esa oilaviy muhitda ishonch va barqarorlikni taʼminlashga xizmat qiladi.

«Qabul qilishga intilish» omili bilan «empatiyaga imkon beruvchi ustanovkalar» oʻrtasida ham ijobiy bogʻlanish aniqlangan ($r=0,38$; $p\leq 0,05$), bu holat farzandlarda ota-onalar bilan hissiy yaqinlikni mustahkamlashga yoʻnaltirilgan ichki ehtiyojning mavjudligini ifodalaydi. Ushbu bogʻlanish farzandlarning oilaviy muhitda oʻzlarini qabul qilingan va tushunilgan his qilishlariga imkon beradi. Empatiyaga imkon beruvchi ustanovkalar farzandlarning hissiy ehtiyojlarini qondirish va ota-onalar bilan iliq munosabatlarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur bogʻlanish ota-onalarning farzandlarning his-tuygʻularini toʻgʻri anglash qobiliyatiga bogʻliq boʻlib, bu ularga ijobiy muloqotni taʼminlash imkonini beradi.

